



O'ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI BANKLARINING TAHLILI VA UNI YANADA RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH YO'LLAR

Nizomova Mehrangiz Jamoliddinzoda

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Bank ishi va audit yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: nizomovamehrangiz@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8026158>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2023 yil

Ma'qullandi: 08-June 2023 yil

Nashr qilindi: 12-June 2023 yil

KEY WORDS

Raqamli bank, raqamli banking, innovatsion bank texnologiyalari, Chime group.

ABSTRACT

Hozirgi kunda, bank tizimida "raqamli" banklar va raqamli bank operatsiyalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish dunyo bo'ylab barcha tijorat banklarining birinchi darajali maqsadiga aylandi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada, raqamli banklarning tuzilishi, turlarining tahlili hamda O'zbekiston sharoitida uni rivojlantirish yo'llari atroficha yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni qabul qilinib, unda bank tizimiga zamonaviy server yechimlari asosida axborot va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xafsizligini lozim darajada taminlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili tasirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar belgilab berildi. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtboshimiz moliya muassasalari ichida bank tizimiga katta e'tibor va asosiy urg'uni bermoqdalar. Xuddi shunday, bank va bank tizimi bundan keyin zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lmas ekan inson e'tiboridan tashqarida qolib ketadi. Shiddat bilan o'zgarayotgan zamon bunga yaqqol misoldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi bank xizmatlarini ko'rsatishda mijozlarga yanada qulayliklar yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda masofaviy bank xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fillialsiz faoliyat yurituvchi banklar (Direct banks), ING Direct, PC Financial (Kanada), First Direct (Buyuk Britaniya), HSBS Direct, Internet Bank of Amerika va E-Trade Bank (AQSh banklari) o'z xizmatlarini asosan online tarzda amalga oshiradi. Raqamli banklar, raqamli banklarni biz kelajak banklarida sifatida ko'rishimiz mumkin. Bu ketishda tijorat banklari online xizmatlarni yo'lga qoymas ekan asta sekinlik bilan o'z kuchi va nufuzini yoqotadi.

Chunki raqamli banklar taqdim etayotgan imkoniyatlarni rad etishni imkoni yo'q. Bundan

tashqari uning asosiy ustunlik tarafi vaqt masalasidadir. Raqamli bank tez va 24/7 rejimda ishlaydi. Ya'ni ular tushlik vaqti, navbat, dam olish kunlari, kuniga 10-12 soat mijozlarga xizmat kabi jarayonlarning barini inkor etadi. Bu o'z navbatida raqamli bankka bo'lgan extiyojning oshishiga va mavqeyining ko'tarilishiga sabab o'ladi. Raqamli banklar to'g'risida birqancha olimlar o'z fikrlarini bildirgan, jumladan: A.A.Gontarning ta'kidlashicha, "Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste'molchilar va tijorat mijozlari uchun moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar"

Tadqiqotchi olimlardan Suchat Tungjitnob, Kitsuchart Pasupa, Boontawee Suntisrivaraporn o'z tadqiqot ishlarida "Mobile banking" to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar "Bank mijozlari banklarning mobil ilovalari (mobile banking) yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtda bank operatsiyalarini darhol amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, mobil banking ilovasi qo'shimcha filiallarni ko'paytirish xarajatlarini kamaytiradi. Bank, shuningdek, ilovadan mijozlar ma'lumotlarini olishdan foyda oladi.¹

Raqamli banklarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak. First Direct nomli Buyuk Britaniya banki 1989-yil oktabr oyida filialsiz ish boshlagan birinchi bank sifatida tarixga muxrlandi. Bu bank tizimi mutloq online amalga oshirilardi. Ikki tomonni bog'lab beruvchi asosiy vositasa vazifasini telefon bajarib berdi.shuni takidlab o'tish lozimki First Direct banki birinchi kuni 1000ta qo'ng'iroqlarni qabul qilgan.

Raqamli banklar ham an'anaviy banklari bizga taqdim etayotgan xizmat turlari bilan shug'ullanadi. An'anaviy banklari bilan raqamli banklarning bu boradagi asosiy farqi raqamli banklar o'z xizmatlarini online taqdim etadi. Chunki raqamli banklarning ma'lum joylashgan hududi mavjud emas yani markazlashmagan. Shu bilan birgalikda, raqamli bank xizmatidan foydalanish uchun sizga ortiqcha vaqt va hujjarni hojati yo'q. Raqamli bank xizmatidan foydalanish uchun sizga mobile telefon, kompyuter yoki shu elementlar o'rnini bosuvchi vositalar kerak bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistic internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bank, bu moliya muassasi shunchalar rivojlandiki hozirda bu so'zni bilmaydigan, tushunmaydigan shaxsning o'zi yo'q. Jamiyat hayotida bu iqtisodiy termin, o'z obro' e'tiboriga ega. Kundalik turmish hayotimizda bajaradigan ishlarimizda ham bu moliya muassasiga yuzlanamiz. Plastik kartada bajariladigan kichik savdodan to valyuta ayri boshlash kabi ishlarda bu moliya muassasi bizga ko'maklashadi. Ammo biz axborot texnologiya har nafasda o'zgaradigan zamonda yashab turar ekanmiz bank hatto bu iqtisodiy termin ham jamiyat hayotidan chiqib ketishi mumkin. Yoki zamon talabiga moslashadi yoki inson nazaridan chekkada qoladi. Bu o'z navbatida bank tizimidan yangicha tizim va yangicha yodashuni talab qiladi. Bu yangi yondashuvni biz raqamli bank misolida ko'rishimiz mumkin. Mutloq yangi tizim, qulay imkoniyatlar, yangicha yondashuv bir soz bilan aytganda ana'naviy banklarning yangi avlodi. Raqamli banklar va ana'naviy banklarning asosiy maqsadlari bir xil bo'lsada faoliyat turi bir biridan sezilarli darajada farq qiladi.

¹ RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA UNING AFZALLIKLAR Mirzobek Komiljonovich Avezov

Hozirgi kungacha bir qancha olimlar tomonidan raqamli banklarga turlicha ta'riflar berilishi bilan birgalikda turlicha nomlar bilan atab kelishmoqda. Yangicha zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bank tizimlarini quyidagicha nomlashimiz va ta'rif berishimiz mumkin:

Raqamli bank-ana'naviy banklarning yangi avlodi bo'lib, uning biror bir markaziy binosi yoki filiali mavjud emas, raqamli bank mijozlariga smartfon, planshet va shaxsiy kompyuterlar orqali taqdim etadi.

Raqamli banklar tijorat banlari shaklida bo'lib jismoniy filiallari mavjud emas, mijozlarga bank xizmatlarini online tarzda ya'ni mobile ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, maxsus platformalar orqali taqdim etadi. Raqamli banklarni yana online banklar, direct banklar va neobank banklar deb ham atashadi. Buyuk Britaniyada ularni "challenger banks", yani murojat qiluvchi bank nomi bilan yuritishadi

"Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi"

Raqamli bank – online platformadan foydalanadigan holda molyaviy xizmatlarni amalga oshirish, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini yaxshilaydi hamda va xarajatlarini tejaydi, shaxsiy m'lumotlarning xavfsizligi hamda xizmatlar sifati va tezligini oshiradi. Raqamli banklar deyarli rivojlangan, rivojlanayotgan barcha davlatlarda mavjud bo'lib o'z faoliyatini yuritib kelmoqda.²

Evropa Ittifoqi tarkibida bo'lgan 28 ta mamlakatlardan 18 tasida jami bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga nisbatan internet bank xizmatlaridan foydalanuvchilar 50 foizdan yuqoriligini ko'rsatdi, jumladan: bu Niderlandiya, Finlandiya, Daniya, Shveysiya, Estoniya, Birlashgan qirollik, Latviya, Lyuksemburg va Belgiya davlatlarida keng ommalashgan.³

No	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	76 013	1 324 849	1 400 862
2	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	48 318	2 611 236	2 659 554
3	Agrobank	171 027	2 993 635	3 164 662
4	Ipoteka-bank	132 546	1 816 496	1 949 042
5	Mikrokreditbank	51 926	718 490	770 416
6	Xalq banki	57 324	2 868 963	2 926 287
7	Savdogar bank	8 599	79 169	87 768
8	Qishloq qurilish bank	24 670	361 229	385 899
9	Turonbank	28 455	236 849	265 304
10	Hamkorbank	95 307	1 212 689	1 307 996
11	Asaka bank	32 277	902 397	934 674

² RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA UNING AFZALLIKLAR Mirzobek Komiljonovich Avezov

³ Денов тадбиркорлик ва педагогика институту Илмий - услубий журнали 2021

12	Ipak Yo'li banki	37 935	988 393	1 026 328
13	Ziraat bank Uzbekistan	2 402	31 984	34 386
14	Trastbank	32 987	161 438	194 425
15	Aloqabank	22 672	483 142	505 814
16	KDB Bank O'zbekiston	876	35 384	36 260
17	Turkistonbank	3 769	15 453	19 222
18	Soderot bank Toshkent	218	1 702	1 920
19	Universal bank	7 940	95 065	103 005
20	Kapitalbank	36 099	301 216	337 315
21	Ravnaqbank	2 241	44 610	46 851
22	Davr-bank	24 261	89 480	113 741
23	Invest Finance bank	23 781	354 609	378 390
24	Asia Alliance bank	14 142	237 334	251 476
25	Hi-Tech bank	1 622	22 211	23 833
26	Orient Finans bank	23 777	340 546	364 323
27	Madad Invest bank	884	2 485	3 369
28	Uzagroeksportbank	110	1 288	1 398
29	Poytaxt bank	801	4 762	5 563
30	Tenge bank	645	7 202	7 847
31	TBC bank	0	313 474	313 474
32	ANOR bank	4 956	577 024	581 980
Jami		968 580	19 234 804	20 203 384

1-jadval. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra. ⁴

Chime Group Holdings Limited – Chime 2012 yilda Kris Britt (bosh direktor) va Rayan King (CTO) tomonidan Kaliforniyaning San-Fransisko shahrida moliyaviy xotirjamlikni yaratish missiyasi bilan an'anaviy bank ishiga muqobil sifatida asos solingan. 2020 yil holatiga ko'ra, Chime xususiy moliyalashtirish uchun 1,5 milliard dollar to'pladi. 2018-yilda Chime Ming yilliklar va yoshlarga kredit byurolariga o'z vaqtida ijara to'lovlari to'g'risida hisobot berib, o'z kredit ballarini shakllantirishga yordam berishga yo'naltirilgan Pinch startapini sotib oldi. Pinchning hammuassislari sotib olishning bir qismi sifatida Chime jamoasiga qo'shilishdi.

Chime moliyaviy texnologiya kompaniyasi bo'lib, u kundalik bank va to'lov xizmatlari foydali, oson va bepul bo'lishi kerak degan oddiy g'oyaga asoslanad. Ular mijozlariga - an'anaviy banklar tomonidan yaxshi xizmat ko'rsatmaydigan oddiy odamlarga - birgalikda moliyaviy erkinlikka erishishga yordam berishni o'z vazifasi deb hisoblaydilar.

Hozir odamlar har qachongidan ham ko'proq o'zlarining manfaatlariga mos keladigan pullik bankka muqobil qidirmoqdalar. Chime kundalik iste'molchilarga aynan shunday

⁴ www.cbu.uz – Markaziy Bank rasmiy veb sayti ma'lumotlari

tanlovni taklif qiladi. Bank bir necha yil oldin ko'pchilik iste'molchilar uchun mavjud bo'lmagan xususiyatlarni bozorga chiqarishga yordam berdi, jumladan, ish haqi cheklariga erta kirish, oylik to'lovsiz hisoblar va 200 dollargacha to'lovsiz overdraftlar. Shuningdek, ular odamlarga xavfsiz kredit yaratish imkonini beruvchi kafolatlangan kredit kartalarini taklif qiladi. Butun mamlakat bo'ylab 60 000+ bepul bankomatlar bilan (AQShning to'rtta eng yirik banklarini birlashtirgandan ko'ra kattaroq tarmoq) Chime a'zolari naqd pul olish uchun hech qachon uzoqqa qarashga hojat sezishmaydi.

Chime bank odamlarning bank faoliyati haqidagi fikrlarini o'zgartirmoqdalar. Chime moliyaviy texnologiya kompaniyasi bo'lib, asosiy bank xizmatlari foydali, oson va bepul bo'lishi kerak degan g'oyaga asoslanadi. Shuning uchun bu bankning modeli overdraft to'lovlari, oylik xizmat to'lovlari, xizmat to'lovlari, minimal balans talablari va boshqalarga tayanmaydi.

Bank a'zolarining birinchi moliyaviy mahsulotlarini loyihalash uchun mintaqaviy banklar bilan hamkorlik qiladi. Bu esa o'z an'anaviy banklar tomonidan yaxshi xizmat ko'rsatmaydigan kundalik amerikaliklar uchun yaxshiroq, arzonroq variantlarga ega bo'lgan raqobatbardosh bozorni yaratadi. Bank innovatsiyalar, inklyuzivlik va barcha sohalarga kirishga yordam beradi.


Guruh o'zining moliyaviy ko'rsatkichlarini quyidagi KPI ko'rsatkichlari yordamida kuzatib boradi:

(million AQSh dollarda)

	2021	2020
Daromad	589.8	424.5
Operatsion daromad	311.1	253
Tuzatilgan EBIT	49.8	35.19
EBIT marjasi	16.0%	14.0%
Soliqdan oldingi foyda (zarar)	24.3	29.1
Erkin pul oqimi	42	70.4

2-jadval. Chime Group Holdings Limitedning moliyaviy ko'rsatkichlari.⁵

⁵ www.chime.com – Chime Group Holdings Limitedning rasmiy sayti ma'lumotlari.



1-rasm. 2021-yil davomida Chime bankning daromadlari, mintaqalar kesimida.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli bank – innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasidir. Umuman olganda, banklarni rivojlantirish bo'yicha yuqorida keltirilgan xorij tajribalari va raqamli bank texnologiyalarini mamlakatimiz tijorat banklarida

ayrimlarini to'g'ridan-to'g'ri va ayrimlarini ma'lum darajada amalda qo'llash mumkin. Ammo, bizningcha avvalo, aholining bank muassasasi to'g'risidagi qarashlarini ijobiy tarafga o'zgartirish, ya'ni bank bu – “davlat” (umumhalq g'aznasi) emas, balki, biznesda moliyaviy hamkor sifatida qarash lozim. Shuningdek, aholining “to'lov madaniyati”ni rivojlantirish lozim. Shundagina banklarning likvidlik darajasini yaxshilash mumkin. Albatta, bu bir tomonlama yondoshuv, ikkinchi tomondan esa bank muassasalarida riskni to'g'ri baholash amaliyotini takomillashtirish, kreditlashda (xususan, savdo kreditlarida) garov (mulk)ga emas, balkim, korxonaning pul-tovar aylanmasini hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA UNING AFZALLIKLAR Mirzobek Komiljonovich Avezov.
2. Денов тадбиркорлик ва педагогика инситетути Илмий - услубий журнали 2021.
3. www.cbu.uz – Markaziy Bank rasmiy veb sayti ma'lumotlari.
4. www.chime.com – Chime Group Holdings Limitedning rasmiy sayti ma'lumotlari.